

INTERNET MULOQOT TILI SIFATIDA**Jo'rayeva Muslima***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich 25_09-guruh talabasi***Ilmiy rahbar: Abdirayimov Anvarjon Oribjon o'g'li***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası
katta o'qituvchisi, (PhD)*

Annotatsiya: Muloqot inson hayotidagi eng buyuk ehtiyojdir. Shuningdek, insonni boshqa jonzotlardan farqlovchi muhim jihatlaridan biri ham uning muloqotga kirisha olish qobiliyatining mavjudligidir.

Kalit so'zlar: virtual, nutqiy muloqot, oddiy nutqiy muloqot, muloqot, muloqotni saqlash, muloqotni yakunlash

Annotation: Communication is one of the greatest needs in human life. It is also one of the key aspects that distinguishes humans from other living beings, namely the ability to engage in communication.

Keywords: virtual, verbal communication, ordinary verbal communication, communication, maintaining communication, concluding communication.

Аннотация: Общение является одной из величайших потребностей в жизни человека. Кроме того, одной из важных особенностей, отличающих человека от других живых существ, является способность вступать в общение.

Ключевые слова: виртуальный, речевое общение, обычное речевое общение, общение, поддержание общения, завершение общения.

Virtual nutqiy muloqot oddiy nutqiy muloqot kabi uch tarkibiy qismdan iborat: muloqotni boshlash, muloqotni saqlash va muloqotni yakunlash. Foydalanuvchi o'zbek tili chatining virtual muloqot makonida o'z borlig'ini ifodalovchi til va pragmatik qoidalariga asoslanib muloqotni amalga oshiradi. Virtual suhbatni quyidagicha tavsiflash mumkin: 1) virtuallik; 2) shakliga ko'ra dialog va polilog; 3) muloqotning ommaviy xarakteri; 4) aloqa yo'nalishi: ko'pdan ko'pgacha; 5) sinxron aloqa; 6) xabar oluvchiga xabar berishning o'rtacha tezligi; 7) xabar shakli va mazmuniga qat'iy talablarning yo'qligi. 8) erkinlik, ya'ni til me'yorlariga amal qilmaslik. 9) me'yorsizlikdagi me'yoriylik (rasmiy va ommaviy axborot saytlari bundan mustasno, bunday matnlarda adabiy til me'yorlariga amal qilish ko'zda tutiladi).

Virtual maydondagi muloqot jarayonini shakllantiradigan omillarni guruhlaydigan bo'lsak, bir qator imkoniyatlarni ko'rish mumkin: 1) kommunikator omili (mazkur jarayonga ta'sir etuvchi maqsad va vazifalarni belgilaydi); 2) maqsadli auditoriya omili (adresat maqsadlarini belgilaydi); 3) muloqot kanali omili (cheklovchilar sifatida maydonga chiqadigan, mazkur kanal standartlarini belgilaydi).

Virtual maydondagi nutqiy muloqotning obykti "chat" tizimidagi amalga oshiriladigan internet muloqotidir. Bu jarayonda kishilar o'zaro muloqotga kirishadilar. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar insonga tobora ko'proq imkoniyat eshigini ochmoqda. Ya'ni yuqori aqlli texnologiyalar ko'plab vazifalarni soddalashtirdi, juda ko'p turli xil ma'lumotlarga kirishni ta'minladi, hayotiy jarayonlarni qulaylashtirdi. Texnologiyaning rivojlanishi va internet tarmog'ining paydo bo'lishi, o'z navbatida, shaxslararo muloqot doirasini yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, turli xil yuqori texnologik qurilmalar va mobil telefonlar nafaqat eshitish, balki suhbatdoshni bir necha ming kilometrdan ko'ra olish imkonini yaratib berdi.

Virtual aloqa – bu kontaktsiz (internet, mobil telefon) kundalik aloqa turidir. Virtual aloqa uchun asosiy vosita internet – platforma, ijtimoiy tarmoqlardir (Twitter, Facebook, Instagram, Telegram, Skype, Odnoklassniki, V Kontakte va Whatsapp kabi ijtimoiy tarmoqlar). Yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligidan qat'i nazar, bu tarmoqlar orqali yaqinlarimiz bilan doimiy aloqada bo'lish va qarindoshlar, eski tanishlar bilan yo'qolgan aloqalarni tiklash, tanishlar doirasini kengaytirish imkoniyatiga egamiz.

Hozirda virtual muloqot deganda, asosiy e'tibor ko'proq internetdan foydalanishning salbiy oqibatlari, afzalliklari yoki kamchiliklari haqidagi muammolarga qaratilmoqda. Lekin shu darajada keng qamrovli muloqot jarayonini tartibga solish muammoli masalalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bu o'rinda masalaning eng nozik nuqtasi sifatida kommunikantlarning lisoniy va nutqiy me'yorga amal qilishi, undan to'g'ri foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, shuningdek, lisoniy shaxsga (LSH) xos belgilarning shakllanganlik darajasi kabi o'ta dolzarb antroposentrik xususiyatlar tahlili va tadqiqiga asosiy e'tiborni qaratmoq dolzarb masalalardan biridir. Internet muloqoti va uning haqiqiy muloqotga nisbatan yutuqlari va shu bilan birga uning kamchiliklari asosiy muammo sifatida ko'rilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ilmiy manbalarda internet muloqotning afzalliklari va kamchiliklari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: "makonda chegaralanmaganlik, zamonda chegaralanmaganlik, anonimlik, ixtiyoriylik, globallik, xavfsizlik, qulaylik. Xususan, muloqotga chiqish uchun onlayn fursatni kutishning shart emasligi, "otilgan o'q" deb hisoblanuvchi aytilgan so'zni qaytarib olish va qayta ishlash imkoniyatining mavjudligi internet muloqotining inson shu paytgacha foydalanib kelgan muloqot usullaridan tubdan farq qilishi; globallik belgisiga ko'ra virtual muloqotda milliy, jinsiy, tabaqaviy chegaralarning mutlaqo mavjud emasligi, tilga oid chegaralarning ham olib tashlanganligi, ya'ni xohlagan tilda yo'llangan xabar avtomatik tarzda qabul qiluvchi talabiga ko'ra tarjima qilinishi mumkinligi; aksincha, virtual muloqotda milliy, jinsiy, tabaqaviy chegaralarning mutlaqo mavjud emasligi milliy o'ziga xoslikning tarkibiy qismi bo'lgan muloqot odati asta-sekin o'z o'rnini ommaviy madaniyatga bo'shatib berayotganligi; xavfsizlik nuqtayi nazaridan yuzma-yuz muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tazyiq va kuch ishlatishlardan himoyalaniish bu muloqot usulida samaraliroq ekanligi, ya'ni muloqot xavfli tus olsa, uni to'xtatish va anonimlik omilidan foydalanib qayta muloqotga kirishmaslik imkonining kengligi kabi jihatlar mualliflar tomonidan asosli ravishda ko'rsatib o'tilgan".

Ma'lumki, muloqot jarayonida, asosan, so'zlashuv uslubidan foydalaniladi. So'zlashuv uslubi oddiy so'zlashuv va adabiy so'zlashuv kabi ikki turga bo'linadi. Bu uslub nutqi g'ayrirasmiyligi, ekspressivligi, bayonning erkinligi va, asosan, dialogik xarakterdaligi bilan izohlanadi. So'zlashuv uslubida metaforik so'zlar, dialektizm, vulgarizm va frazeologik iboralar ko'proq qo'llanadi. Turli ekstralingvistik faktorlar (qo'l, bosh, badan harakatlari, mimikalar) so'zlashuv nutqi uslubiga xosdir. Ilmiy manbalarda so'zlashuv uslubining og'zaki xarakterda ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Ammo bugungi virtual muloqot maydonida so'zlashuv uslubining ham qaysidir ma'noda yozma ko'rinishlari shakllandi. O'zbek tilshunosligida so'zlashuv uslub bilan bog'liq ishlar amalga oshirilgan.

Adabiyotlar

1. Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Рустамова Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. Жамоавий монография. – Андижон: Step by step print, 2020. – Б. 67-69.
2. З.Ж.Жаназарова Современная семья в Казахстане и её проблемы. – Алмата: Qazaq universiteti, 2004. – 257 с.

3. Н.Л.Зеланд Кашгария и перевалы Тянь-Шаня: путевые записки. – Омск: Тип. Окр. “Штаба”, 1888. – 234 с.
4. А.И.Левшин Описание орд и степей казахов. 2-е изд. доп. – Астана: “Алтын кітап”, 2007. Т. 9. – 212 с.
5. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.